

JAMIYATNING IJTIMOIYLASHUVIGA FOROVON HAYOT SARI STRATEGIYALAR

Marziyoxon Lolayeva

*Ijtimoiy himoya milliy agentligining
Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani
Xurlik va O'ynako'l MFY da kompleks
hizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy hodim
Surxondaryo viloyati Termiz Iqtisodiyot
va Serves unverseti 3- bosqich iqtisodiyot va
soha turlari yo'nalichi talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizda bo`layotgan o`zgarishlar, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, inson huquqlarini ta`minlash, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish, Milliy iqtisodiyotni isloh qilish kabi bir qator masalalar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so`zlar: *imkoniyat, iqtisodiyot, faoliyat, huquq, erkinlik, ta`minlash, faollik, siyosat, strategiya.*

Аннотация: В данной статье рассматривается ряд вопросов, касающихся изменений, происходящих в нашей стране, возможностей, создаваемых для молодежи, обеспечения прав человека, повышения политической активности населения и общественных объединений, реформирования национальной экономики.

Ключевые слова: возможность, экономика, деятельность, право, свобода, обеспечение, активность, политика, стратегия

Annotation: *this article reflects on a number of issues such as changes taking place in our country, opportunities being created for young people, ensuring human rights, increasing the political activity of population and public associations, reforming the national economy.*

Keywords: *opportunity, economy, activity, law, freedom, provision, activism, politics, strategy.*

Mamlakatimizni 2017 — 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish

bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rildi. Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.¹

So‘nggi yetti yilda mamlakatimizdajuda ko‘p islohotlar amalga oshirildi. Aytishga oson, biroq ortga qarab chamasak, qisqa muddat ichida inson qadri uchun qilingan ishlarning salmog‘i katta ekaniga guvoh bo‘lamiz. Masalan, yurtimizda bir bola dunyoga kelar ekan, uning fuqaro sifatidagi huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatiga e’tibor qaratilmoqda. Tug‘ilganlik haqida guvohnoma olish barobarida maktabgacha ta’lim tashkilotiga chiqish uchun elektron ro‘yxatga qo‘yilmoqda. Bu farzandlarimiz kelajagi davlat nazoratida ekanini anglatadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim tizimi tubdan o‘zgargani, o‘quv dasturlari va darsliklar yangilangani, tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarga munosabat yaxshilangani farzandlarimizning sifatli ta’lim olishini kafolatladi.²

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bundan tashqari Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 20-fevral kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoelektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilangan. Shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish bo‘yicha farmon qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

O‘tgan vaqt mobaynida o‘ndan ortiq davlatning tajribasi chuqur o‘rganildi, malakali ekspertlar jalb qilindi. Shu asosda olib borilgan tahlillarga ko‘ra, bu soha 30

¹ **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.2022-yil 28-yanvar,

PF-60-son

² 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida

yil oldingi tizimda qolib ketgan, faqat davlat ajratgan pulni tarqatish bilan shug‘ullangan. Bu ayrim odamlarni o‘zini o‘nglab olishga emas, yordam kutib yashashga o‘rgatib qo‘yan.

Misol uchun, mehnatga layoqatli kishilarga ham nafaqa to‘lab kelingan. Nogironligi borlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, kasbga o‘rgatish orqali hayotga qaytarishga yetarlicha e’tibor berilmagan.

Davlatimiz rahbari bu tizimni tubdan isloh qilish, ijtimoiy yordamning manzilliligi va natijadorligini ta’minlash zarurligini ta’kidladi.

O‘zbekiston 2021-yilda Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilgan. Bunday shaxslarni ishga olgan korxona va tashkilotlar uchun bir qator imtiyozlar berilgan.

Lekin ko‘p muassasalar, ko‘chalar va bekatlar imkoniyati cheklangan shaxslar harakatlanishi uchun moslashmagan. Maktab va kollejlarda sharoit yo‘qligi sababli ota-onalar nogironligi bor farzandini uzoqdagi maxsus internatga joylashtirishga majbur. Bu oila uchun, ayniqsa, bola uchun juda og‘ir.

Shu bois endi nogironligi bo‘lgan shaxslarni o‘qitish, ishga joylash va sportga jalg qilish bo‘yicha milliy tizim bo‘ladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga ishslash va kasb-hunarga o‘qishda to‘siksiz muhit yaratish uchun ularning “mehnatga layoqatini belgilash” amaliyotidan voz kechiladi. Bunda nogironlik kasallikka qarab emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanadi.

Tuman markaziy shifoxonalarida tibbiy reabilitatsiya xonalari tashkil etiladi. Protez vositalari 18 turdan 30 turga, ajratilayotgan mablag‘ esa 1,5 barobar oshirilib, ular bilan ta’minlash elektron shaklda bo‘ladi. Bunday vositalarni uydan turib, vaucher orqali onlayn yoki “Inson” markazi yordamida istalgan ishlab chiqaruvchidan olish mumkin bo‘ladi.

Bino va inshootlarni qurish loyihaci nogironligi bo‘lganlar uchun qulay muhit yaratilganligi bo‘yicha ham majburiy ekspertizadan o‘tkaziladi. Jamoat transporti, bekatlar va chorrahalarda ular uchun to‘siksiz muhit yaratish choralarini ko‘riladi.³

Jamiyatning ijtimoiylashuvi va farovon hayotga erishish uchun bir qancha strategiyani qo’llash mumkin. Bu strategiyani quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lish mumkin:

I. Iqtisodiy taraqqiyot vaadolatlitaqsimot:

- Barqaror iqtisodiy o’sish: Iqtisodiyotning barqaror o’sishi orqali ish o‘rnlari sonini ko‘paytirish va aholining daromadlarini oshirish. Bu esa kambag‘allikni kamaytirish va farovonlikni yaxshilashga yordam beradi.

³ Bosh sahifa Prezident matbuot xizmati yangiliklari

- Adolatli taqsimot: Daromadlarning adolatli taqsimlanishiga erishish orqali boyliklarning konsentratsiyasini kamaytirish va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish. Progressiv soliq tizimi, ijtimoiy nafaqalar va boshqa ijtimoiy himoya choralar bu borada muhim rol o'ynaydi.

- Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash: Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o'rnlari yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

- Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish: Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llash orqali ish unumdarligini oshirish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni mustahkamlash.

II. Ta'lif va malaka oshirish:

- Sifatli ta'lif: Barcha fuqarolar uchun sifatli ta'limga kirish imkoniyatini ta'minlash. Bu esa bilim darajasini oshirish, ish topish imkoniyatlarini kengaytirish va jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

- Kasb-hunar ta'limi: Aholi o'rtasida kasb-hunar ta'limini rivojlantirish va ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish.

- Doimiy ta'lim: Hayot davomida o'qitish va malaka oshirish tizimini rivojlantirish orqali odamlarning yangi bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatini yaratish.

III. Sog'liqni saqlash:

- Sifatli tibbiy xizmatlar: Barcha fuqarolar uchun sifatli va arzon tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyatini ta'minlash.

- Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish: Sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik va boshqa sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish orqali kasalliklarning oldini olish.

- Profilaktika tibbiyoti: Profilaktika tibbiyotini rivojlantirish orqali kasalliklarning oldini olish va ularni erta bosqichlarda aniqlash.

IV. Ijtimoiy himoya vaadolat:

- Ijtimoiy nafaqalar va subsidiyalar: Kam ta'minlangan oilalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun ijtimoiy nafaqalar va subsidiyalarni taqdim etish.

- Ijtimoiyadolat: Jinsiy tengsizlik, irqiy kamsitish va boshqa shakllardagi ijtimoiyadolatsizlikni bartaraf etish.

- Qonun ustuvorligini ta'minlash: Huquqiy davlatni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish.

V. Muhitni muhofaza qilish

- Ekologik toza texnologiyalar: Ekologik toza texnologiyalarni qo'llash orqali atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish.

- Tabiiy boyliklarni oqilona ishlatalish: Tabiiy boyliklarni oqilona ishlatalish orqali kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolish.

Yuqoridagi strategiyani amalga oshirish uchun davlat organlari, nodavlat tashkilotlari va jamiyatning barcha a'zolari o'rtasida hamkorlik zarur. Shuningdek, bu

strategiya muntazam ravishda baholanib va takomillashtirilishi lozim. Uzoq muddatli va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun uzoqni ko'zlab ish tutish muhimdir.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh.2022-yil 28-yanvar, PF-60-son
2. *2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida*

